

JORJ ORUELNING “MOLXONA” ASARI HAQIDA

A. O'ktamov¹*(Scientific supervisor: Aliyeva Nargiza To'qinovna)**Annotatsiya:*

Ushbu maqolada asarning yozilish sabablari hamda undagi yashirin ma'no. Hayvonlarning ozodlik, erk uchun kurashlari bayon qilingan. Asar qishloq xo'jaligi fermasida sodir bo'ladigan voqealar orqali, hayvonlar o'z egalari - odamlar tomonidan zulmga uchraganidan keyin ozodlik uchun kurashni boshlaydilar. Hayvonlar tomonidan boshqariladigan molxona dastlab adolat va tenglik asosida yaratiladi, ammo vaqt o'tishi bilan, kuch va hokimiyatga intilish orqali, yangi zolim — cho'chqa Napoleondan xavf tug'iladi. Oruell bu asarida kuchning yo'qolishi, hukumatning manipulyatsiyasi va insoniyatning qiyinchiliklari haqidagi muhim g'oyalarni namoyish etadi.

Kalit so'zlar: Jorj Oruel, antiutopik asar, “Hayvonlar xo'jaligi haqida g'aroyib qissa”, “Qo'rg'oncha” molxonasi, mustabid tuzum, ozodlik, erk, adolat, Mayor, Napoleon, Snoubol, “Angliya jonivorlari”.

doi: <https://doi.org/10.2024/xzxhy593>

Kirish

Jorj Oruelning ushbu asari majoziy til bilan yozilgan, totalitar jamiyat va hokimiyatning buzuvchi tabiatning keskin tanqidi bo'lib xizmat qiladigan, o'quvchini chuqur o'yga toldiradigan va turli xil ma'nolarga boy kinoyali, hajviy-siyosiy roman hisoblanadi. Roman 1943-yildan to 1944-yilgacha yozilgan va 1945-yilda Buyuk Britaniyada chop etilgan. Ushbu asar nashr qilingandan keyin turli bahslarga sabab bo'ladi va tanqidga uchraydi. Ushbu asar sababli Britaniya SSSR bilan munosabatlari yomonlashmasligi uchun bu asarga ba'zi senzuralar kiritadi. Ushbu romanga multfilm hamda film suratga olingan.

Asosiy qisim. Ushbu asar fermada bo'lib o'tgan voqea-hodisalar va adolatli va teng huquqli jamiyat o'rnatish umidi bilan avvalgi zolim ferma egasini ag'darib tashagan hayvonlar guruhi atrofida sodir bo'ladi. Voqealar rivoji "Qo'rg'oncha" nomli molxonada sodir bo'ladi. Ferma egasi mister Jons fermasidagi hayvonlarga yomon munosabatda bo'ladi, ularga og'ir ishlarni qildiradi va shu qilgan mehnatlariga yarasha ovqatlantirmaydi ham. Fermadagi hayvonlar ichida eng yoshi kattasi bo'lmish keksa Mayor (hayvonlar uni doim shunday atashardi, holbuki, ko'rgazmalarga olib borganda "Uillington Go'zali" degan nom ostida namoyish etishardi) tilidan shu so'zlar aytiladi: do'stlar, bizning tirikligimizdan nima ma'no bor? Kelinglar haqiqatga adilona qaraydigan bo'lsak: shu qisqa hayotimiz davomida har kungi xo'rliklarda va rahmatli mehnatda o'tadi. Dunyoga kelibimizki bizga o'lmaydigan darajada ovqat berishadi, kuchi bor hayvonlar amallab jon saqlab qolishadi. Og'ir mehnat ta'sirida hech bir ishga yaramay qolsak bizni o'ylab o'tirmay qushxonaga topshirishadi" - deydi. Shu sababli hayvonlar qo'zg'olon ko'tarishadi. Bu qo'zg'olonga mayorning o'zi boshchilik qiladi va ular tezda fermani qo'lga olishadi va uni hayvonlar fermasi deb atashadi. Keksa Mayor vafotidan keyin boshqaruv Napoleon va Snoubol laqabli cho'chqalar qo'lga o'tadi. Ikkala cho'chqa ham aqli bo'lishadi, Snoubol aqli va innovatsion cho'chqa bo'lib, u fermani rivojlantirish uchun turli xil g'oyalar ishlab chiqadi. U boshqa hayvonlar ham aqli bo'lishi uchun ularga ham o'qish va yozishni, tegirmon qurish orqali fermaning hayotini yaxshilashni

¹ O'ktamov Azamatjon Azimovich, *Third years of student in SSFL*

rejalashtiradi. Napoleon esa o'z aqlini hokimiyatni saqlab qolishga sarf etadi. Ular asarda aqlli deb keltirilsa ham biri ijodkorlikda ikkinchisi esa siyosatda yaxshi bo'ladi va bu jihat ikkalasining farqini namoyish etadi. Ular tomonidan 7 ta qonun-qoidalar ishlab chiqiladi, hayvonlar tengligini ta'minlash uchun. Keyinchalik Napoleon o'zining sodiq itlari yordamida Snoubolni fermadan badarg'a qiladi va u haydalganidan keyin Napoleon hokimiyatni o'z qo'liga oladi va avtoritar boshqaruvni amalga oshiradi. U fermada sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarda Snoubolni aybdor qilib ko'rsatadi. Keyinchalik 2 ta cho'chqa tomonidan yaratilgan qoidalar Napoleon tomonidan asta-sekin o'zgarib boraveradi va boshqaruvni qo'lga olgan Napoleon odamlar singari yashashni boshlaydi, shuningdek uning davrida hayvonlar hayoti mister Jons davridagi dam farq qilmay qoladi: barcha hayvonlar yana og'ir mehnat qilishni boshlaydi faqat cho'chqalardan tashqari. Snoubol chizmalari asosida ular tegirmon qurishni boshlashadi. Ammo bir necha bor tegirmon buziladi va bu ishda Snoubolni ayblashadi. Bu paytda cho'chqalar mehnatda yiroqda bo'lib ular mister Jonsning uyini o'zlarining yashash joyiga aylantirishgandi. Asarda Boksyor laqabli ot ham asosiy qahramonlardan hisoblanadi. U asarda juda mehnatkash, kuchli, berilgan vazifani sidqidildan bajaradigan hayvon sifatida namoyon etiladi. U ham og'ir mehnat natijasida vafot etadi. Uni o'zlarining an'alariga xos tarzda dafn etishadi, ammo uning jasadini Napoleonning sodiq itlari berishadi va bu haqda cho'chqalardan boshqa hayvonlar bilishmaydi. Quyida hayvonlar fermasidagi 7 ta qonun-qoidalar.

1. Ikki oyoqda yurgan barcha narsa dushman.
2. To'rt oyoqli yoki qanotli barcha narsa do'st.
3. Hech bir hayvon kiyim kiymasin.
4. Hech bir hayvon to'shakda uxlamasin.
5. Hech bir hayvon spirtli ichimlik ichmasin.
6. Hech bir hayvon boshqa hayvonni o'ldirmasin.
7. Barcha hayvonlar teng, lekin ba'zilar boshqalardan ustunroq.

Xulosa. O'quvchiga bu asarning boshlanishi o'zbek xalq ertagi bo'lmish "Susambil" elsatadi. Ammo keyingi epizodlarda bu asar undan tubdan farqlana boshlaydi. Jorj Oruell bu asarida hayvonlar orqali insoniyat jamiyatidagi muammolarni tasvirlaydi hamda hayvonlarni ramziy obraz sifatida foydalanadi. Bulardan keksa Mayor Karl Marks va V. Lenin shaxsiyatlarini namoyish etadi. Napoleon esa I. Stalin obrazida namoyon bo'ladi, Snoubol esa Stalin tomonidan chetlatilgan L. Trotskiyni gavdalandiradi. Boksyor esa zulm va oz mablag' evaziga bo'lsa ham og'ir mehnat qiladigan xalq sifatida namoyon etilgan yozuvchi tomonidan. Bundan tashqari Napoleon tomonidan o'zgartirilgan qoidalarda yana bir siyosatchining obrazini ko'rish mumkin. Ya'ni, "barcha hayvonlar teng, lekin ba'zilar boshqalardan ustunroq" - deyiladi. Bunda A. Gitlerning "nemislar oliy darajali irq qolgan guruhlar ulardan past" degan fikriga o'xshashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. <https://www.sparknotes.com/lit/animalfarm/>
- [2]. <https://www.cliffsnotes.com/literature/a/animal-farm/animal-farm-at-a-glance>
- [3]. <https://www.britannica.com/topic/Animal-Farm>
- [4]. *Literaturnaya entsiklopediya – Oruellning asarlari va ularning tahlillari haqida.*
- [5]. *Akademik maqolalar va sharhlar – Oruellning "Molxona" asaridagi ijtimoiy va siyosiy temalar, masalan, "Animal Farm: A Fairy Story" va uning bolshevik inqilobiga bo'lgan munosabati.*

[6]. *Молхона[матн]: роман/Ж. Оруэлл;таржимон К. Бахриев- Тошкент : NIHOL,2021.-100б*

[7]. *Latipov Aziz Akbaralievich Continuous phase and means of use in Uzbek language // SAI. 2023. №Special Issue 14. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/continuous-phase-and-means-of-use-in-uzbek-language>*